

**TALABALARNING KONSULTATIV FAOLIYAT MALAKALARI ASOSIDA  
KASBIY-SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIK  
TADQIQIQTAR PREDMETI SIFATIDA.**

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti “Psixologiya” kafedrası  
o'qituvchisi*

***Akbaraliyev Asilaxon Tojiddinovna***

*Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich PP-05-guruh  
talabasi*

***Sayfiyeva Sevinch Olimjon qizi***

**Annotsatsiya:** Talabalarning konsultativ malakalari asosida ham kasbiy ham shaxsiy rivojlanishi eng avvalo psixologik jarayonga bog'lanadi, har bir talaba va o'qituvchilar konsultativ faoliyatini olib borayotganda uzini ishiga layoqatli bo'lishi kerak bo'lardi shu bilan birgalikda ulardan mahoratni ham talab qiladi shu bilan birgalikda talaba va o'qituvchilar nazariy shakllantiriladi.

**Kalit so'zi:** Konsultativ, psixolog, psixologik xizmat, pastient muammolari, konsultativ psixologiya, psixokonsultatsiya, psixologik maslahat, korrekstion psixologiya, psixokorrekstiya, xulqi og'ish, xulq-atvordagi bo'zilik, psixologik trening, psixoterapiya, interakstiya, taksikomanlik.

O'qituvchi madaniyatida kasbiy layoqatlik oz sohasida etuklik, mahoratlik va namuna bolish komponentlarini kamrab oladi. Bu konikma oliy ta'lim jarayonida nazariy shakllantiriladi va pedagogik faoliyatda takomillashib boradi. Birinchi Prezidentimiz o'zining O'zbekistonning bugungi istiqbol va istiqbol yo'lini ifodalovchi boshqa qator ma'ruzalari va asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir va aks ta'sir etadigan muhim omillari ekanligini va ayni paytda bugungi iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy

tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini ta'minlashning muqarrar ijtimoiy zarurat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Shuningdek, Birinchi Prezident I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasidagi "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusidagi so'zlagan nutqidan kelib chiqqan holda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dastur (1997 yil 29 avgust) ning amalda qo'llanilishi bugungi shaxs faoliyatidan, uning ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillaridan yanada unumliroq foydalanish yo'llarini izlashga da'vat etadi. Bu esa, avvalo inson ma'naviyati, ruhiyati va ijtimoiy kamoloti bilan shug'ullanuvchi psixologlar oldiga bir muncha jiddiy va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'ygan talablar asosida qaror toptirishga ko'maqlashuvchi psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir. Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy-tadbiqiy yo'nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko'pgina olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar. Shu sababli, o'qituvchining kasbiy etukligi faoliyat darajasiga qarab baholanishi maqsadga muvofiq boladi. Biz endi faoliyat boshlagan yosh oqituvchidan tom ma'nodagi kasbiy etuklikni talab qila olmaymiz, undan nisbatan xarakterdagi etuklik darajasini kutamiz. Axloqiy malakalik oqituvchi kasbiy madaniyatida bilimlilik, axloqiy fazilatlik va demokratik munosabatlikni qamrab oladi. O'qituvchining axloqiy malakaligi oliy ta'lim jarayonida namoyon bola boshlaydi va faoliyat davomida takomillashib boradi. Bu orinda biz yosh oqituvchidan axloqiy me'yor malakasi va fazilatlikni kutishga haqlimiz. Oliy ta'lim jarayoni oqituvchi axloqiy malakasini nazariy kuchaytiradi, xolos. Ba'zan korreksion vazifani bajavrihi mumkin, amma oliy ta'lim jarayoni axloqiy malakani kasbiy yonaltirish masalasida muhim vazifani bajaradi. O'qituvchi kasbiy madaniyatida oz faoliyatini baholay olish ijodkorlik, texnologik, malakalik va samaradorlik komponentlarini mujassam etadi. O'qituvchining oz

faoliyatini nazorat qila olishi yoki faoliyatidan qoniqmasligi baholash jarayoni uchun muhim asosdir. Hozirgi kunda oqituvchi faoliyatini tashqi kuchlar tomonidan baholash keng tus olgan, bu masalaning bir tomoni. Asosiy masala shundaki, oqituvchining ozi faoliyatini baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Aynan mana shu nuqtada oqituvchining kasbiy etukligi va axloqiy malakaligi namoyon boladi. Kasbiy madaniyat darajasi baholash natijasida aniqlanadi. Zero, biz kasbiy etuklik, axloqiy malakalilik va faoliyatni baholashni hozirgi zamon oqituvchisi kasbiy madaniyatining asosiy komponentlari sifatida qabul qilamiz. Bunda oliy ta'lim jarayoni kasbiy madaniyatni shakllantirish, nazariy yo'naltirish va muayyan darajada korreksiyalash funksiyasini bajaradi. O'qituvchining amaliy faoliyati kasbiy madaniyatning namoyon bolishi, malakaning kuchayishi va tajribaning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Besh yil va undan kop amaliy faoliyat tajribasiga ega bolgan oqituvchidan kasbiy madaniyatni kutish maqsadga muvofiqdir. "Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar etmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik maslahatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik- pedagogik o'rganilishini taminlash:

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas. Psixolog maktabda engib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu,

psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir. Psixolog adaptastion davrining qiyin kechishiga bir necha omil sabab bo'ladi. Inson va uning xar tomonlama uyg'un kamol topishi va faravon shaxs manfaatlarini ruyobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, Respublikada amalga oshiralayotgan isloxotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy, madaniy, iqtisodiy, Fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonunining qoidalariga muvofiq xolda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribalarning tahlili va ta'lim tizimidagi, jaxon miqyosidagi yutuklar asosida tayyorlangan xamda yuksak umumiy va kasb xunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy xayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish maxoratiga ega bo'lgan istiqbol vazifalarini ilgari surish va xal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Bugungi kundagi Oliy o'quv yurtining talabalari ertangi kunning etuk mutaxassislari va ziyolilari sifatida o'sib kelayotgan avlod ongi va ruhiyatiga adolatli Vatan bilan faxrlanish, ertangi kunning etuk insonlari, ertangi kunga ishonch, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini singdirishda shaxsiy o'rnak namunasi bilan o'z hissalarini qo'shmoqlari shart. Chunki ziyolilikning muhim belgisi umuminsoniy qadriyatlarni bilish, ularni qadrlash, o'z kasbi sir-asrorlarining chuqur bilimdoni va moxir ustasi bo'lish kasb etikasi va psixologiyasi asoslarini to'liq anglash va ularni o'z faoliyatida qo'llashdir. Demak Yangi zamon kishisi o'z-o'zini va o'zgalar psixologiyasini moxir biladigani, kerak bo'lsa, Psixodiagnost va Psixokorrektidir. Psixologik trening, psixoterapiya, psixologik korrekstiya, psixodiagnostika kabi turli ko'rinishdagi psixologik yordamni qiyosiy tahlil qilish orqali psixologik konsultastiyaning o'ziga xosligini aniqlash Individual maslahat faoliyati psixologik tekshiruv bola tarbiyasini aniqlash va yordam dasturini tuzishdan iborat. Psixolog

oldindan aytishning zaruriy mezonlari sifatida Vigotskiy turli davrlarga bo'linganlik, ketma-ket yosh bosqichlarida kenglik va darajalangan karakteristikalarini ko'rsatadi, Maslahat berish amaliyotida shartli variantni oldindan aytish xaqida ham to'xtalib o'tish mumkin, shartli variantni oldindan aytish har xil sharoitlarni amalga oshirganda bola taraqqiyotining keyingi borishida mumkin bo'lgan variantlarni tushunamiz. Boshqacha aytganda, u yoki bu noqulay sharoitlar saqlanganida, olinganida bolani qanday extimolli taraqqiyot kutishini aytib beriladi. Individual psixologik maslahat berish psixolog amaliy faoliyatining eng ma'suliyatli turlaridan biridir. Maslahatchining fikri, psixik taraqqiyot buyicha har bir baxosi bolaning keyingi taraqqiyotiga, o'qituvchilarning, ota-onalarning bolaga nisbatan munosabatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, Shuning uchun indivudal psixologik maslahat bola rivojlanishini boshidan diqqat bilan taxlil qilishni, har xil manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Ma'lumotlar manbasi sifatida ota-onalar bilan suxbat, o'qituvchining ota-onalar bolaning o'zi bilan suxbat, bolaning o'zi bilan suxbat, bolani uyda, maktabda va boshqa xollarda kuzatish psixologik tajriba orqali tekshirish, ota-onalar bilan tanishish tibbiy xujjatlar bilan tanishish va boshqalardan foydalanish mumkin, ko'pchilik mualliflar aniq xodisaga maslahat berishda quyidagi ketma-ketlikni afzal ko'radi:

1. Ota-onalar bilan dastlabki suhbatda olingan ma'lumotni taxlil qilish hamda vrachlardan pedagoglardan olingan ma'lumotlarni ham e'tiborga olish,
2. Bolaning ilgari rivojlanish bosqichlari, oiladagi munosabat xaqida, sog'ligi xaqida ma'lumot olishi uchun ota-onalar bilan suxbat,
3. Boshqa mussasalardan ma'lumot yig'ish, Sog'ligi xaqida ma'lumot, Bolani maktabda uyda boshqa xollarda kuzatish, Psixologik metodlar bilan tekshiruvga muhim qo'shimcha sifatida bolaning faoliyatini (rasmlari, qiziqadigan narsalarini taxlil qilish kiradi).

Bolani maktabda, uyda boshqa xollarda kuzatish, Psixolog olingan ma'lumotlar asosida bola rivojlanishining umumiy darajasiga baxo berish bola qiyinchiliklari mohiyatini tavsiflashi, analiz qiyinchiliklardan kelib chiqqan omillarini aniqlashi va

psixokorreksiya dasturini ishlab chiqishi kerak. Maslahat berish amaliyotida juda ko'p metodlar bor. Psixolog oldida turgan vazifa birinchidan bola bilan yaxshi munosabat va o'zaro tushunishdan iborat. Muammoli vaziyatlarni shoshilmasdan, aniq xal qilish kerak. Savolni bir necha marta takrorlamaslik kerak. Test olinayotgan vaqtda bolaga o'rgatish, tanqid qilish, xatto maqtash ham mumkin emas, tanqid bolani chalg'itadi, dilini og'ritadi, ko'pincha bolani topshiriqqa bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Psixologik muammolarni xal etishda shaxsdan test olishda yoki diagnostika qilish uchun tajriba o'tkazishda uning emosional xolatiga, o'zini yaxshi xis qilayotgan, charchash belgilari yo'q vaqtda yoki ortiqcha asabiylashish, qaysarlik yo'q vaqtda o'tkazish kerak. Yosh davrida bolani psixologik tekshirish muammosi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi. Psixologik muammolarni xal etishda psixologga qiyin masalalarni xal qilish uchun diagnostik testlar bilan tekshiruvni amalga oshirish kerak. Diagnostik tekshiruv qoidalarini ko'rib chiqsak: Psixodiagnostikada bu masalaga katta ahamiyat beriladi, chunki tekshiruvchi harakatlarining natijasi, testni o'tkazish qoidalariga to'liq amal qilishga bog'liq. Ko'pchilik metodikalar yordamida bir necha qoidalar ishlab chiqilgan. qo'llanmani unga ajratilgan vaqtni o'zgartirish mumkin emas. Barcha tekshiriluvchiga bir xil oxang, bir xil aytishni talab qilinadi. Psixologik maslahat vazifalari chet ellarda yaxshi rivojlangan otalar bolasi taqdiri bilan yoshligidan qiziqib e'tibori kuchlidir. Ular o'sishi rivojlanishi davrlarida farzandidagi har bir o'zgarishga ahamiyat berib, o'z vaqtida psixologik ko'rikdan o'tib turishadi, o'z vaqtida maslahatni olib muammoli vaziyatni tez xal qiladilar. Psixologiya fani nimadan baxs yuritadi - degan savol mavjuddir, biroq hozirgi zamonda korrektsiya psixologiya fani nimani o'rgatadi, qanaqa predmet degan savol tug'ilmoqda. Ma'lumki psixologiya fani shaxsni o'rganadigan yagona fan emas, chunki uning ayrim jihatlarini falsafa, pedagogika, logika, sosiologiya, xatto kibernetika tadqiq qilmoqda. Konsultativ psixologiyada-chi? Korrektsiya psixologiyada-chi? Korrektsiya psixologiya fanida inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta'sir ko'rsatishni taqozo qiladi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida aloxida ahamiyat kasb etadigan narsa bu -bolalar, o'quvchilar, talabalar xulqining bo'zilishi, ta'limda

o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganadi. Shu bilan birga psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotidagi xulqi va muomalasidagi nuqson va kamchiliklarni asta -sekin tuzatish, korrekstiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tadbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi. Korrekstion ishlarda guruhning qadriyatlarga yo'nalganligi etnopsixologik va etnomadaniyati xususiyatlari, elat tarixi , millat odati, udumi, rasm-rusmlari va boshqa etnopsixologik xususiyatlar o'z aksini topishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

Aminov N.A. Bo'lajak maktab o'quvchilarining maxsus qobiliyatlari tarkibiy qismlari haqida

psixologlar / N.A. Aminov, M.V. Molokanov // Psixologik jurnal. – № 5. – 1992. – 104–110-betlar.

Antonova N.V. Shaxsiy o'ziga xoslik muammosi // O'z-o'zini anglash psixologiyasi: o'quvchi / Ed. D.Ya. Raigorodskiy. – Samara: BAXRAH-M, 2000. – B. 471–487.

Verbitskiy A.A. Kognitiv va kasbiy motivatsiyani shakllantirish talabalar / A.A. Verbitskiy, T.A. Platonov. – M.: Oliy maktab ilmiy-tadqiqot instituti, 1986. – 154 b.

Elizarov A.N. Ishonch telefoni: ota-ona bilan psixolog-maslahatchi sifatida ishlash ota-onalar va yoshlar mojarolari sharoitida mi // Psixologiya savollari. – 1995. –